DESPOTIK HOKIMIYAT VA CHEKLANGAN INFRATUZILMA: BUXORO AMIRLIGIDA BEKLAR VA MAHALLIY AMALDORLAR USTIDAN MARKAZ NAZORATI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)

O‘tanov Xurshid Sheraliyevich
Xalqaro Nordic universiteti
E-mail: otanov.xurshid@nordicuniversity.org
ORCID: 009-0006-7439-0111

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligida beklar va mahalliy amaldorlarning maqomi, vakolatlari va daromad manbalari hamda markazning ular ustidan nazorat mexanizmlari o‘rganiladi. Mahalliy tarixnomalar Mirzo Salimbek, Muhammadhakimxon To‘ra, Ahmad Donish, Amir Sayyid Olimxon, O‘zbekiston Milliy arxivining tanlangan hujjatlari, Rossiya imperiyasi davri tavsiflari va sovet hamda mustaqillik davri tadqiqotlaridagi ma’lumotlar jadvallar asosida qiyosiy tanqid qilindi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Mang‘itlar sulolasi, mahalliy boshqaruv, bek, amlokdor, qozi, patrimonializm, infratuzilmaviy hokimiyat, Rossiya protektorati, Markaziy Osiyo.

1. Kirish

Mang‘itlar sulolasi Buxoroda XVIII asr o‘rtalaridan 1920-yilgacha hukmronlik qilgan yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak manbalarda bu turlicha beriladi: Muhammad Rahimning amalda hokimiyatni egallashi 1753-yilga, xon unvonini olishi esa 1756-yilga to‘g‘ri keladi. XIX asrda amirlik Markaziy Osiyodagi uchta mahalliy davlat ichida aholisi eng ko‘p va iqtisodiy jihatdan eng yirigi edi. 1866-yilda Erjar yonidagi jangdagi mag‘lubiyat va 1868-yilgi tinchlik shartnomasidan so‘ng amirlik amalda Rossiya imperiyasiga qaram bo‘lib qoldi bu qaramlik 1873-yilgi shartnoma bilan rasmiylashtirildi [Becker, 1968].

V. Xolsvart [Holzwarth, 2011] amirlikka oid tadqiqotlarda hududiy boshqaruv kam o‘rganilganini qayd etib 1900-yillar atrofida elbegilar bir vaqtning o‘zida jamoa oqsoqoli va davlat vakili vazifasini bajarganini e’tirof etadi.

A. Morrison esa boshqa bir muammoga e’tibor qaratadi. Markaziy Osiyo tarixining asosiy manbalari bo‘lgan fors va turkiy manbalarda yer egaligi borasiadagi masalalarda kam ma’lumot beradi. Sovet davri ma’lumotlarida esa ko‘p hollarda g‘oyaviy yondashilganligi sababli to‘la ishonchli diya olmaymiz. Natijada esa beklik va undan quyi bo‘g‘in boshqaruviga oid ma’lumotlar arxiv hujjatlari, dissertatsiyalarda tarqoq holda, uzuq-yuluq ma’lumotlar bo’lib qolmoqda va hali yaxlit tahlil qilinmagan.

Sovet va mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar bu materialning katta qismini qayd etgan [Iskandarov, 1958; Kislyakov, 1962; To‘xtametov, 1977; Muhammadjonov, 2001; Sagdullayev va Mavlonov, 2006; Eshov, 2012]. Sovet tarixshunosligida tayinlovlar asosan urug‘-aymoq va sinfiy ekspluatatsiya bilan izohlangan. Mustaqillik davri asarlarining aksariyati esa tavsifiy xarakterga ega yani, idoralar va ma’muriy birliklar sanab o‘tilsada ularning yagona tizim sifatida qanday ishlagani tahlil qilinmaydi.

Muammoning qo‘yilishi. Tarixshunoslikda Buxoro amirligi boshqaruvi asosan ikki xil talqin qilingan. Sovet tarixshunosligida [Iskandarov, 1958] hamda XX asr o‘rtalaridagi ingliz tilidagi umumlashtiruvchi asarlarda [Kunitz, 1935; Wheeler, 1964] amirlik qat’iy markazlashgan, yakkahokimlikka asoslangan davlat sifatida tasvirlanadi. Ikkinchi guruhdagi olimlar qarashlarida esa viloyat elitalari va o‘zbek urug‘larining markazga nisbatan sezilarli mustaqillikka ega bo‘lgani va hokimiyat markaz bilan mahalliy elitalar o‘rtasidagi doimiy kelishuvga tayangani ta’kidlanadi [Holzwarth, 2015; Wilde, 2016]. Lekin har ikki yondashuvda ham beklikdan quyi bo‘g‘inda hokimiyat amalda qanday ishlagani — beklar va amaldorlarning huquqiy maqomi, vakolati, daromad manbai, markazning ular ustidan nazorat usullari — tizimli

ravishda yoritilmagan. Shu yerda tabiiy savol tug‘iladi. Agar amir hokimiyati mutlaq bo‘lsa, nega u davlatni maosh olmaydigan beklar va jamoa oqsoqollari orqali boshqargan? Nega ayrim bekliklar markazga emas, mahalliy harbiy kuchga tayangan? Shulardan kelib chiqib, maqola muammosini qiyidagicha qo‘dik: XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida amirning hokimiyati bilan uning joylardagi amaliy nazorati yani bek va amloqdorlar bilan qanday mexanizmlar orqali muvofiqlashtirilgan?

Dastlabki faraz. Yuqoridagilardan xulosa qilgan holatda, bu davrda Buxoroning mahalliy boshqaruvi ikki xususiyatni o‘zida birlashtirgan: oliy hokimiyat yuqorida qattiq markazlashgan, bekliklar darajasida esa boshqaruv mahalliy amaldorlar qo‘lida bo‘lgan. Bundan kelib chiqadigan xavfni hukmdor kuchli ma’muriy apparat orqali emas, qarindoshlik va urug‘chilikka tayangan parallel zanjirlar orqali jilovlagan.

Maqolaning yangiligi uchta holatda ko‘rinadi. Birinchidan, turli manbalardagi uzuq-yuliq tarqoq ma’lumotlar bir tizimga keltirilib, ularning nomuvofiq joylari ochiq solishtiriladi. Ikkinchidan, markaz va joylar bir-biriga qarshi turgan ikki kuch sifatida emas, hisobdorlik va o‘zaro bog‘liqlikka qurilgan yagona tizim sifatida ko‘riladi. Uchinchidan, xorijiy va sovet tarixshunosligida shakllangan «mutlaq amir» obrazi mahalliy tadqiqotlar dalillari bilan sinab ko‘riladi.

2. Tarixshunoslik konteksti va tahlil asoslari

2.1 Dalillar va ularni qanday o‘qish kerak

Buxoroning mahalliy boshqaruvi haqidagi ma’lumotlar beshta yo‘nalish orqali shakllantiriladi va ular bir-birini to‘ldiradi.

Birinchisi — mahalliy tarixchilar an’anasi: Mirzo Salimbek, Muhammadhakimxon To‘ra, Amir Sayyid Olimxon, Ahmad Donish kabi. Bu asarlarning aksariyati sulola saroyida, bir qismi esa unga tanqidiy nigoh bilan yozilgan. Mang‘it yilnomalarida hukmron xonadonni qonuniylashtirish maqsadi yaqqol seziladi (Kügelgen, 2002).

Ikkinchisi — N. Xanikovdan (1843) D. Logofetgacha (1911) bo‘lgan rus imperiyasi davri yaratilgan asarlar va ularda berilgan tasnivlar. Maskur asarlarda lavozimlar, soliqlar va bekliklarning ro‘yxatlari kabi muhim ma’lumotlar keltirilishi bilan birga, boshqa jihatdan ularda imperiya ma’muriyati va harbiy-siyosiy manfaatlari uchun yozilgan, mahalliy institutlar esa ko‘pincha rus ma’muriy kategoriyalari orqali tasvirlangan, shuning uchun ular tanqidiy o‘qishni talab qiladi.

Uchinchisi — sovet tadqiqotlari [Iskandarov, 1958; Kislyakov, 1962; To‘xtametov, 1977]. Ular arxiv va yozma manbalarni keng jalb qilgani bilan qadrli. Shu bilan birga bularda ham bularning ham bir qancha nuqsanli tomoni mavjud yani, jarayonlar sinfiy yondashuv qolipida, ijtimoiy ziddiyatlar birinchi o‘ringa qo‘yilib, marksistik metodologiya doirasida talqin qilinadi.

To‘rtinchisi — sovet davri va Sovuq urush yillaridagi ingliz tilidagi adabiyot [Kunitz, 1935; Holdsworth, 1959; Wheeler, 1964; Becker, 1968]. Bekkerning kitobi arxivga tayangan jiddiy diplomatik tarix. Kunitz va Uiler esa aslida sovet tajribasi haqida yozgan; inqilobdan oldingi Buxoro ularda faqat fon, u ham chor va sovet manbalari ko‘zi bilan chizilgan bundan ko‘rinadiki ularni o‘qishda va maqola uchun asos qilib foydalanishda g‘oyaviy sug‘orilgan ma’lumotlar mavjudligini inobatga olgan holda sinchiklab, tahlil qilgan holda yodashishni talab qiladi.

Beshinchisi — mustaqillik davri o‘zbek tarixshunosligi [Vohidov, 1996; Xoliqova, 2006; Ochildiyev, 2007; Shodiyev, 2008; Xoliqulov, 2011a; Eshov, 2012]kabi o‘nlab misollarni keltirishimiz mumkin. Bu ishlarda hududiy va arxiv tafsilotlari keng to‘plangan, biroq ularning ko‘pchiligi tavsifiy xarakterga ega va manbalarni qiyosiy tanqid qilish masalasiga kam to‘xtaladi yoki bayon shaklida yoritilgan. A. Morrison (2013, 2020) amirlikning ma’muriy tuzilishi va Rossiya bilan chegaralari masalasini ancha mustahkam hujjat yaratilganini e’tirof etadi. A. Vilde [Wilde, 2016] XVIII–XIX asrlarda Movarounnahrda hokimiyat, martaba va ijtimoiy tartib masalasini fors tilidagi asarlar asosida keng ko‘lamda

tahlil qilib, mang‘it hukmdorlari hokimiyatining urug‘ elitalari, ulamolar va boshqa ijtimoiy guruhlar bilan munosabatlarga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

2.2 Tushunchalar va takliflar

Tahlilda bir nechta nazariy vositadan foydalanamiz. M. Veber (1978) tomonidan ishlab chiqilgan patrimonial hukmronlik nazariyasida davlat amaldorlarining mavqei va vakolatlari hukmdorning shaxsiy irodasi hamda unga xizmat qilish tamoyili bilan belgilanadi: ular uning xohishiga ko‘ra tayinlanadi, xizmatiga yarasha taqdirlanadi. J. Migdal (1988) ilgari surgan «kuchli jamiyat – zaif davlat» modeli esa davlat siyosatining joylarda mahalliy vositachilar tomonidan qanday o‘zgartirilishi va cheklanishini tushuntirish uchun qo‘shimcha nuqtai nazar beradi. Bu konsepsiyalar asosan Yevropa va zamonaviy davlatlar tajribasida ishlab chiqilganini ham unutmaslik kerak.

Shu vositalardan kelib chiqib, dalillarni tekshirish uchun to‘rtta taklif (Taklif1–Taklif4) ilgari suramiz:

Taklif1. Amirning amaldorlarni tayinlash va bo‘shatishdagi to‘liq erkinligi, lavozimlarning asosan meros qolmasligi va amaldor mol-mulkini musodara qilish huquqi unga amaldorlar ustidan kuchli nazorat qilish imkonini bergan.

Taklif2. Amaldorlar maosh olmagani uchun mahalliy hokimiyat aholidan olinadigan yig‘imlar hisobiga yashagan. Demak, idoralar tarkibi ma’muriy ehtiyojni emas, moliyaviy imkoniyatni aks ettirishi, qonunsiz yig‘imlar esa doimiy oshib borishi ehtimoli ko‘payadi.

Taklif3. Hukmdor hududlardagi infratuzilmaning ojizligini shu bilan birga bir-birini takrorlaydigan va bir-biridan mustaqil xabar beradigan tayinlov zanjirlari (ma’muriy, sud-diniy, kunduzgi va tungi politsiya) bilan to‘ldirganligi nazorat qilish imkoniyatini oshiradi.

Taklif4. 1868-yilgacha bekliklardagi siyosiy va harbiy resurslar markazlashuvni, ya’ni amir hokimiyatini qisman cheklagan; 1868-yildan keyin Rossiya himoyasi ostida amirning mavqei mustahkamlangan.

3. Manbalar va usullar

Hikoyaviy manbalar: Mirzo Salimbekning «*Tarixi Salimiy*»si, Muhammadhakimxon To‘raning «*Muntaxab at-tavorix*»i, Amir Sayyid Olimxonning amirlik so‘nggi o‘n yilliklari haqidagi bayoni, Ahmad Donishning mang‘itlar sulolasi tarixi. Arxiv materiallari O‘zbekiston Milliy arxivining (O‘zMA; sobiq O‘zR MDA) 1, 2 va 126-fondlaridan, davriy matbuot ma’lumotlari esa 1908-yilgi *Turkestanskie vedomosti* gazetasidan olingan. Raqamli ma’lumotlarning asosiy qismini esa imperiya va sovet davri tadqiqotlari hamda mustaqillik davri dissertatsiyalarigi ma’lumotlar orqali shakllantirildi.

4. Natijalar

4.1 Hududiy tuzilma

Manbalar hududiy tizimning asosiy o‘lchamlarida ham bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi (2-jadval). Mang‘itlar davri uchun arxiv va ikkilamchi manbalarda 27 ta beklik va 11 ta tuman ko‘rsatilgan [O‘zMA, F. 126, op. 1, d. 51, l. 43; Muhammadjonov, 2001, b. 5]. XX asr boshlari uchun esa 24 ta beklik, 7 ta alohida amlok va 10 ta tuman qayd etilgan [Kislyakov, 1962; O‘zMA, F. 1, op. 29, d. 571, ll. 1–2]. Bu raqamlar bir-birini inkor etmaydi, chunki ular turli davrlarga tegishli: 1868-yilda Samarqand bilan birga Zarafshon vodiysining o‘rta qismi Rossiyaga o‘tgach, amirlik hududi qisqargan [Morrison, 2020]. Bundan tashqari, manbalarda mahalliy nizolarni bartaraf etish maqsadida ma’muriy birliklar birlashtirilgani yoki bo‘lingani haqida ham ma’lumot uchraydi.

B. Eshov [2012, b. 345] yerlarni sug‘oriladigan maydoniga ko‘ra tasniflaydi: tuman — 100 ming tanob, hazara — 50 ming, nimhazara — 25 ming, obxo‘ri — 10–15 ming, qariya — 400, maraza — 300 tanob. Bizningcha, bu ma’muriy emas, iqtisodiy tasnif: birliklar soliq to‘lash qobiliyatiga qarab darajalangan, bu esa daromadni baholash va yig‘ishni osonlashtirgan. Shuning uchun uni ma’muriy ro‘yxatlardagi «tuman»lar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri solishtirib bo‘lmaydi. J. Skott [Scott, 1998] atamasi bilan aytganda, bu tizimli

kadastr emas, balki davlatning o‘z hududini nozarotda davomli qilish uchun urunish edi desak mubalog‘a bo‘lmaydi.

Ko‘p bekliklar amloklarga bo‘lingan, har bir amlok bir necha qishloqni qamragan. Qarshida o‘n beshta amlok bo‘lgan: Qamashi, Jeynov, Kasbi, Maymanoq, Koson, Po‘lati, Parg‘uza, Fayzobod, Beshkent, Potiron, Fazli, Jumabozor, Xonobod, Chim va Qorabog‘ [Kislyakov, 1962, b. 54]. Kitobda to‘qqizta, Shahrisabzda o‘n to‘rtta, Yakkabog‘da o‘n bitta, Chiroqchi va G‘uzorda oltitadan amlok qayd etilgan [Ochildiyev, 2007, b. 102]. Mirzo Salimbek esa Yakkabog‘ni to‘qqiz birlikdan iborat deydi: Beshariq, Amloki Duyul, Qorabog‘, Imom Yoqub, Bo‘zariq, Sumak, Toshqo‘rg‘on, Boboshodi va Qorayo‘g‘och [Mirzo Salimbek, 2009, b. 96, 128].

Aholi joylashuvining zichligi sharq va g‘arbda keskin farq qilgan. Axmadjon Xoliqulovning ma’lumotlariga ko‘ra, Baljuvonda 1420 ga yaqin, Hisorda 1200 ga yaqin, Qorateginda 700 ga yaqin va Ko‘lobda 635 ga yaqin aholi punkti bo‘lgan deganma’lumotni o‘z tadqiqotlarida keltirib o‘tadi. Hozirgi Turkmaniston hududidagi bekliklarda esa bu ko‘rsatkich ancha past: O‘stida 15 ta, Burdaliqda 14 ta, Kelifda 24 ta aholi punkti qayd etilgan [Xoliqulov, 2011a, b.68].

4.2 Bekning tayinlanishi, xizmat muddati va majburiyatlari

Beklarni amirning o‘zi tayinlagan va o‘zi bo‘shatgan [Logofet, 1911, 1-j., b. 240]. Asosiy mansablar odatda mang‘it urug‘i vakillariga berilgan. Boshqa o‘zbek urug‘laridan va hatto ulardan tashqaridagi urug‘lardan ham yuqori lavozimga chiqqanlar bo‘lsa-da [Amir Sayyid Olimxon, 1991, b. 10]. Beklar asosan yuqori tabaqadan, yirik yer egalaridan chiqqan. Mansablar ko‘pincha qarindoshlik bo‘yicha taqsimlangan, ammo ba’zan oddiy odam ham bek darajasiga ko‘tarilganligi manbalarda keltirilgan.[Krestovskiy, 1911, b. 173].

Bek bo‘lish meros mulkka yo‘l ochmagan. Hokimiyat otadan o‘g‘ilga o‘tmagan, bek vafot etsa, uning mol-mulki merosxo‘rlarga hech narsa qoldirilmasdan amir xazinasiga olingan [Yavorskiy, 1882, b. 36]. Shu o‘rinda

beklar ham yuqoridagi vaziyatni bilgan holda o‘z qarindoshlari va eng sodiq odamlarini beklikdagi daromadli lavozimlarga joylashtirgan [O‘zMA, F. 2, op. 1, d. 251, l. 87].

Bu dalillar *Taklif1* ning birinchi qismini to‘la qo‘llab-quvvatlaydi. Tayinlashdagi to‘liq erkinlik, lavozimning meros qolmasligi va vafot etgan amaldor mulkining xazinaga olinishi amirga eng muhim lavozim egalari ustidan kuchli shaxsiy nazorat o‘rnatish imkonini bergan. Mulkni musodara qilish qoidasini esa viloyatlarda mahalliy sulolalar shakllanishining oldini oluvchi vosita deb qarash mumkin, xolbuki bo borasida faqatgina bir manbada ma’lumot keltirilgan xalos. Lavozimdagi ishonchsizlik va oylik mavjud emasligi buning na’tijasida o‘z-o‘zini ta’minlash beklarni tez boyishga undagan manbalarda mansabni suiiste’mol qilish haqidagi ma’lumotlarni ko‘plab uchrashi bunga asos sifatida qarashga undaydi.

4.3 Mahalliy hokimiyatning moliyaviy asosi

Amlokdorlar soliq yig‘gan, o‘z hududida politsiya shu bilan birga ma’muriy vazifalarni ham bajargan [Logofet, 1911, 1-j., b. 243–244]. Markaz beklarga ham, mahalliy amaldorlarga ham muntazam maosh to‘lash tartibini joriy qilmagan, shuning uchun ular mahalliy soliq va yig‘imlar hisobiga kun ko‘rgan va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun belgilangan miqdordan oshiqroq hajmda soliqlar va yig‘imlarni oshirgan. Bek o‘z qo‘l ostidagilarga beradigan haq (*moyana*) ularning daromadining bir qismi edi, xolos [Shodiyev, 2008, b. 79]. Manbalarda keladigan yig‘imlardan *zakoti chakana*, *qo‘sh puli*, *yaksara*, *osiyo puli*, *objuvoz puli*, *tanob puli* va *alaf puli* kabi yig‘im turlari bor edi. Qolganlarining aniq moliyaviy mazmuni esa filologik tekshiruvni talab qiladi. Logofetning [1911, 2-j., b. 53] yozishicha, bu yig‘imlar shariatda belgilanmagan va asosan mahalliy ma’muriyat, ya’ni beklarning ehtiyoji uchun undirilgan.

Mahalliy ma’muriyatning kattaligi doim ham aholi soniga mos kelmagan. Eng qoloq beklik hisoblangan Darvozda 55 mingga yaqin aholi yashagan bo‘lsada, lekin amaldorlar soni nisbatan ko‘p bo‘lgan [Logofet, 1911, 1-j., b. 242]. Yagona byudjet ma’lumotlari yuritilmaganligi yig‘imlarning raqamlardagi o‘lchamlarini o‘lchashga imkon bermaydi. Shuning uchun *taklif2* faqat sifat jihatidan tasdiqlanadi.

4.4 Majburlash tartiblari va mahalliy harbiy kuch

Har bir amlokdorda faqat u tomonidan nazorat qilinadigan o‘ntadan ikki yuztagacha navkar bo‘lgan. Ular harbiy xizmat o‘tagan, shuning uchun ular bek va amlokdorlarning qarorgohini qo‘riqlagan, mahkumlarni zindonga olib borgan [Shodiyev, 2008, b.123]. Navkarlarning tabaqalari ham turlicha bo‘lgan, hatto ba’zi yirik yer egalari ham navkarlik qilganligigini ko‘rishimiz mumkin. Yaxshi xizmat qilgan navkarlarga ayrim qishloqlardan to‘lov olish huquqi berilar edi. [Xoliqulov, 2011b, b. 22].

Harbiy resurslar bekliklar darajasida ham notekis bo‘lgan. Ko‘lob va Qorateginda mahalliy hokimiyatga bog‘liq bo‘lmagan artilleriya bo‘linmalari turgan [Beysembiev, 2007, b. 23–24]. Denov va Qo‘rg‘ontepada esa amir doimiy qo‘shin saqlamagan, beklar mahalliy harbiy kuchlarga tayangan [Ahmad Donish, 1967, b. 76]. Demak, amirning viloyatlardagi hukmi mahalliy kuchlar, doimiy bo‘linmalar va shaxsiy sadoqat aralashmasiga tayangan. 1868-yildan keyin muvozanat o‘zgardi. Morrisonning (2020) yozishicha, general-gubernator K. P. fon Kaufman 1870-yilda amalda mustaqil bo‘lgan Shahrisabzni bosib olib, uni Buxoroga topshirgan va shu bilan amir hokimiyatini mustahkamlagan.

4.5 Diniy-sud boshqaruvi va jamoat tartibi: alohida zanjirlar, ustma-ust vazifalar

Bekliklarning qozilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Buxorodan tayinlangan va bekka bo‘ysunmagan [To‘xtametov, 1977, b. 17]. Ular bekning faoliyati haqida Buxoroga muntazam va maxfiy xabar berib turgan. Diniy amaldorlar kundalik hayotning asosiy sohalari — sud, madrasa, maktab va masjidlarni nazorat qilgan.

Shaharlarda tartibni mirshablar saqlagan. Buxoro mirshabboshisi boshqa barcha shaharlar mirshablarini nazorat qilgan, davlat mahbuslari uning ixtiyorida bo‘lgan, amirning *shig‘ovul* va *xudaychilari* esa faqat amir buyrug‘i bilan harakat qilgan [Muhammadhakimxon To‘ra, 2010, b. 519]. Buxoro shahri ikki dahaga, har bir daha oltita jaribga bo‘lingan.

Kunitz [1935, b. 22–23] amir hokimiyati mutlaq bo‘lganini, idora boshliqlari va hokimlarni amir tayinlab, ular faqat unga hisob berganini yozadi. Uning keltirgan ma’lumotlarida, har bir beklikda rais, zakotchilar boshqaradigan moliya bo‘limi, qozi kalon, qozilar va muftiydan iborat sud apparati bo‘lgan va hammasi amir nazorati ostida turgan.

5. Muhokama

5.1 «Markazlashgan yoki o‘zini o‘zi boshqaradigan» degan tanlovdan ichki nazoratga

Dalillar Buxoro mahalliy boshqaruvini qat’iy markazlashgan yoki o‘zini o‘zi boshqaradigan tizim emas, ichki nazoratga tayangan tuzilma deb ko‘rishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Manbalarda unvon va vazifalarning (mirza, devonbegi, yasovulboshi, qozi) davomiyligi ko‘rinadi. Bekker (1968) 1917-yilgacha Rossiya siyosatining asosiy tamoyili xonliklarning ichki ishlariga aralashmaslik bo‘lganini ko‘rsatadi.

5.2 Qiyosiy va tarixshunoslik ahamiyati

Buxoro modeli zamonaviy davrgacha bo‘lgan siyosiy tizimlarning keng oilasiga kiradi: bunday tizimlarda hukmdorlar prebend, soliq yig‘ish va viloyat elitasi bilan kelishuvga tayangan [Weber, 1978; Tilly, 1990; Barkey, 1994].

6. Xulosa

Muammoning yechimi. Amir kuchli despotik hokimiyatga ega bo‘lgan beklarni o‘zi tayinlagan, o‘zi bo‘shatgan, ularning mulkini musodara qila olgan. 1868-yildan keyin Rossiya protektorati mahalliy tartiblarni o‘zgartirmagan holda amir mavqeini tashqaridan mustahkamladi.

Maqolada amirlikdagi mahalliy hokimiyat to‘rt pog‘onali tuzilma — beklik, amlok (tuman), mavze va qishloq sifatida tiklandi. U alohida sud-diniy va politsiya tizimlari bilan yonma-yon ishlagan va patrimonial-prebendal iyerarxiya sifatida talqin qilindi. Bundan uchta xulosa chiqadi.

Tuzilma. Hududiy birliklar va ularning nomlari joyga qarab farq qilgan, raqamlar esa manba va sanaga ko‘ra o‘zgaradi (27 beklik va 11 tuman; 24 beklik, 7 alohida amlok va 10 tuman). Ularni bir qatorga qo‘yib bo‘lmaydi. Tuman, hazara, nimhazara kabi yer toifalari ma’muriy darajani emas, soliq to‘lash qobiliyatini bildiradi.

Din, sud va tartib. Qozilar bekdan mustaqil ravishda Buxorodan tayinlangan va bek haqida maxfiy xabar bergan; qozilar, raislar va mirshablar bir nechta vazifani birga bajargan. Alohida tayinlov zanjirlari va ustma-ust vazifalar birgalikda nazoratni ta’minlagan.

Umumiy xulosa. Amirning despotik kuchi katta, infratuzilmaviy kuchi esa cheklangan edi. «Markazlashuv yoki o‘zini o‘zi boshqarish» degan tanlovdan ko‘ra, «ichki nazorat» tushunchasi amirlik qanday boshqarilganini aniqroq ifodalaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

Arxiv hujjatlari va davriy matbuot

O‘zMA [O‘zbekiston Milliy arxivi], F. 1, op. 29, d. 571, ll. 1–2.

O‘zMA, F. 2, op. 1, d. 251, l. 87.

O‘zMA, F. 126, op. 1, d. 51, l. 43.

Turkestanskie vedomosti. (1908, 27 May).

Nashr qilingan birlamchi manbalar

Ahmad Donish. (1967). *Traktat Akhmada Donisha «Istoriia mangitskoi dinastii»* (I. A. Nadzhafova, Trans.; A. M. Belenitskii, Ed.). Dushanbe: Donish.

Amir Sayyid Olimxon. (1991). *Buxoro xalqining hasrati tarixi*. Toshkent.

Chekhovich, O. D. (1954). *Dokumenty k istorii agrarnykh otnoshenii v Bukharskom khanstve. Vyp. 1: Akty feodal'noi sobstvennosti na zemliu XVII–XIX vv.* Tashkent: Izdatel'stvo AN UzSSR.

Khanykov, N. (1843). *Opisanie Bukharskogo khanstva*. St. Petersburg: Tipografiia Imperatorskoi Akademii nauk.

Krestovskiy, V. V. (1911). V gostiakh u emira Bukharskogo. In *Sobranie sochinenii*. St. Petersburg: Berezovskii.

Logofet, D. N. (1911). *Bukharskoe khanstvo pod russkim protektoratom* (Vols. 1–2). St. Petersburg: Berezovskii.

Mirzo Salimbek. (2009). *Tarikh-i Salimi: Istochnik po istorii Bukharskogo emirata* (N. K. Norkulov, Trans.). Tashkent: Akademiia.

Muhammadhakimxon To'ra. (2010). *Muntaxab at-tavorix* (Sh. Vohidov, Trans.). Toshkent: Yangi asr avlodi.

Yavorskiy, I. L. (1882). *Puteshestvie russkogo posol'stva po Avganistanu i Bukharskomu khanstvu v 1878–1879 gg.* (Vol. 1). St. Petersburg.

Tadqiqotlar

Barkey, K. (1994). *Bandits and bureaucrats: The Ottoman route to state centralization*. Ithaca, NY: Cornell University Press.

Becker, S. (1968). *Russia's protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

Beysembiev, T. K. (2007). Melkie gosudarstva Maverannakhra: Nur-ata, Urgut, Iakkabag (XIII–XIX vv.) [Small states of Mawarannahr: Nurata, Urgut, Yakkabag (13th–19th centuries)]. *Iran-name*, (1), 23–24.

Eshov, B. (2012). *O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi* [History of state and local administration in Uzbekistan]. Toshkent: Yangi asr avlodi.

Holdsworth, M. (1959). *Turkestan in the nineteenth century: A brief history of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva*. Oxford: Central Asian Research Centre.

Holzwarth, W. (2006). The Uzbek state as reflected in eighteenth century Bukharan sources. *Asiatische Studien / Études Asiatiques*, 60(2), 321–353.

Holzwarth, W. (2011). Community elders and state agents: Īlbēgīs in the Emirate of Bukhara around 1900. *Eurasian Studies*, 9(1–2), 213–262.

Holzwarth, W. (2015). Bukharan armies and Uzbek military power, 1670–1870: Coping with the legacy of a nomadic conquest. In K. Franz & W. Holzwarth (Eds.), *Nomad military power in Iran and adjacent areas in the Islamic period* (pp. 273–354). Wiesbaden: Reichert.

Iskandarov, B. I. (1958). *Iz istorii Bukharskogo emirata (Vostochnaia Bukhara i Zapadnyi Pamir v kontse XIX veka)* [From the history of the Bukharan emirate (Eastern Bukhara and the Western Pamirs in the late 19th century)]. Moscow: Izdatel'stvo vostochnoi literatury.

Muhammadjonov, A. R. (Ed.). (2001). *Buxoro amirligining aholi punktlari (XIX asr oxiri – XX asr boshi)* [Settlements of the Emirate of Bukhara (late 19th – early 20th century)]. Toshkent: Universitet.

Ochildiyev, F. B. (2007). *XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Janubiy O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot* [Socio-economic life in southern Uzbekistan in the late 19th – early 20th century] (Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.

Sagdullayev, A., & Mavlonov, U. (2006). *O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi* [History of state administration in Uzbekistan]. Toshkent: Akademiya.

Scott, J. C. (1998). *Seeing like a state: How certain schemes to improve the human condition have failed*. New Haven, CT: Yale University Press.

Shodiyev, J. M. (2008). *Buxoro amirligining shakllanishi va uning davlat tuzumi* [The formation of the Emirate of Bukhara and its state system] (Dissertatsiya avtoreferati). Toshkent.

Tilly, C. (1990). *Coercion, capital, and European states, AD 990–1990*. Oxford: Blackwell.

Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari

To‘xtametov, T. G. [Tukhtametov, T. G.]. (1977). *Rossiia i Bukharskii emirat v nachale XX veka* [Russia and the Bukharan emirate in the early 20th century]. Dushanbe: Irfon.

Vohidov, Sh. (1996). *Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar* [Titles and offices in the Khanate of Kokand and the Emirate of Bukhara]. Toshkent.

Xoliqova, R. E. (2006). *XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi diplomatik, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar* [Diplomatic, economic and political relations between the Russian Empire and the Emirate of Bukhara] (Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.

Xoliqulov, A. (2011a). *XIX – XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi bekliklari* [The bekliks of the Kashkadarya oasis in the 19th – early 20th century] (Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.